



COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KUZATILADIGAN NEVROLOGIK ASORATLARNI TAHLIL QILISH

Karimov A.Y.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608914>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-January 2024 yil

Ma'qullandi: 28- January 2024 yil

Nashr qilindi: 31- January 2024 yil

KEY WORDS

COVID-19, nevrit, polinevropatiya, depressiya, amneziya, koronavirus,

ABSTRACT

COVID-19 kasalligini boshidan kechirgan bemorlarda kuzatiladigan nevrologik asoratlarni tahlil qilish va zarur choralar ko'rish orqali ularni bartarash etish.

Dolzarbliqi: Koronaviruslar 50 yildan ortiq vaqtdan beri fanga ma'lum bo'lgan RNK viruslari oilasidir. Bularga SARS-CoV-1, MERS-CoV va SARS-CoV-2 (COVID-19) kabi o'tkir respirator sindromlarning qo'zg'atuvchilari kiradi. SARS-CoV-1 epidemiyasi 2002 yilda sodir bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda yangi virus bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va virus nafaqat o'pka, balki asab to'qimalari uchun ham zararli ta'sirga ega ekanligi qayd etilgan. 2005 yilda otopsiya materialini o'rganish natijasida miyada koronavirus aniqlangan va neyronlarning o'limiga, glial giperplaziyaga va mahalliy shishga olib kelgan. Virus miyaga asosan hid nervi orqali kiradi deb taxmin qilingan. SARS-CoV-1 bilan og'rigan bemorlarda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ataksiya, gipogeziya, giposmiya, insult, miopatiya va epileptik tutqanoqlar kuzatilgan. Shunga o'xshash nevrologik ko'rinishlar COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 36,7 foizida kuzatiladi. Yoshlarga qaraganda keksalar va qariyalar COVID-19 ga ko'proq moyil bo'ladi. COVID-19 fonida turli xil og'riq sindromlari (bosh og'rig'i, mialgiya), anosmiya, disgeuziya, meningit, ensefalit, epileptik tutilishlar, serebrovaskulyar kasalliklar, ensefalopatiyalar mavjud. Bundan tashqari, COVID-19 ning surunkali bosqichi (post-covid sindromi) rivojlanishi, shuningdek, infeksiya fonida neyrodegenerativ kasalliklarning dekompensatsiyasi mumkin. SARS-CoV-2 miya to'qimasiga kirish uchiun maxsus ferment 2 (ACE2) dan foydalanadi. ACE2 retseptorlari insonning ko'plab to'qimalarida, masalan, pnevmotsitlar membranalarida, ingichka ichakning enterotsitlarida, arteriyalar va tomirlarning endotelial hujayralarida, nervlar va glial hujayralarda, shuningdek, ko'pchilik organlarning silliq mushak hujayralarida joylashgan.

Virusning ACE2 retseptorlariga qon tomir endotelial hujayralari membranasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishiga olib keladi va yallig'lanish sitokinlari kontsentratsiyasining oshishiga sabab bo'ladi. COVID-19 bilan og'rigan bemorlarda yallig'lanishga qarshi sitokinlar (o'simta nekrozi omili, interferon gamma, interleykin (IL) -1,


IL-2, IL-6 va IL-8) va yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-4 va IL-10). Yallig'lanish kaskadi, o'z navbatida, qon tomirlari devorlarining shikastlanishiga va protrombotik omillar ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uchun Koronavirus bilan kasallangan bemorlarni davolashga mo'ljallangan maxsus 2-son Zangiota shifoxonasi, Toshkent shahar 5-son klinik shifoxonasi, Toshkent shahar 7-son klinik shifoxonasida davolanayotgan va davolanib chiqqan, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda kuzatiladigan nevrologik o'zgarishlarni tahlil qilish orqali olib borildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot ishlari 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida olib borilgan. Dastlab 2021 yilning oktyabr oyidan 2022-yil mart oyigacha Koronavirus bilan kasallangan bemorlarni davolashga mo'ljallangan maxsus 2-son Zangiota shifoxonasida davolangan bemorlar tekshirilgan. 2021 yil 1 oktyabrdan 2022-yil 28-fevralgacha shifoxonaga jami 21 615 ta bemor yotqizilgan. Ana shu bemorlardan 1056 tasi (572 ta erkak, 484 ta ayol) nevropatolokka shikoyat bilan murojat qilgan. Bemorlar asosan bosh og'rishi, xotira buzilishi, ish qobiliyatining pasayishi, asabiylashish, depressiya, kuchli bosh og'riq, qo'l-oyoqlarning titrashi, behuda va arzimaz narsalarga tashvishlanish, uyqusizlik va boshqa nevrologik shikoyatlar bilan murojat qildi. O'rganilgan tahlillarga ko'ra 1056 ta bemordan quyidagi eng ko'p nevrologik holatlar aniqlandi.


1. Depressiya - 324 ta (30.7 %)
2. Uyqusizlik –219 ta (20.8 %)
3. BMQAO'B – 61 ta (5.8)
4. Polineyropatiya – 153 ta (14.5 %)
5. Amneziya – 182 ta (17.2 %)
6. Stress – 86 ta (8.1 %)
7. Son nervi nevropatiyasi – 31 (2.9 %)

Respublika maxsus 2-son Zangiota shifoxonasidagi holatlar




Endigi tadqiqot 5-son Shahar klinik shifoxonasida olib borildi. Tadqiqot natijasida olingan 120 ta koronavirus infeksiyasini yuqtirib olgan bemorlardan quyidagi holat qayt etildi:

1. Depressiya - 45 ta (%)
2. Uyqusizlik – 34 ta (%)
3. BMQAO'B – 1 ta (%)
4. Polineypatiya – 2 ta (%)
5. Amneziya – 11 ta (%)
6. Stress – 25 ta (%)
7. Son nervi nevropatiyasi – 2 (%)



Endigi tadqiqot 7-son Shahar klinik shifoxonasida olib borildi. Tadqiqot natijasida olingan 131 ta koronavirus infeksiyasini yuqtirib olgan bemorlardan quyidagi holat qayt etildi:

1. Depressiya - 46 ta
2. Uyqusizlik – 61 ta
3. BMQAO'B – 12 ta
4. Polineypatiya – 31 ta
5. Amneziya – 42 ta
6. Stress – 72 ta
7. Son nervi nevropatiyasi – 3 ta



Umumiy olganda COVID-19 kasalligi bilan og'rikan bemorlarda yurak qon-tomir, hazm qilish, nafas olish kasalliklari bilan birga nevrologik asoratlarning kam kotta qismini tashkil qilishi klinik jihatidan belgilab o'tildi

Xulosa: Koronavirus infeksiyasini yuqtirib olgan bemorlarning asorati sifatida yurak qon-tomir kasalliklaridan so'ng asab tizimi kasalliklari ikkinchi o'rinda turadi.

Eng ko'p nevrologik asoratlardan Uyqusizlik, depressiya, amneziya va polineyropatiyani tashkil

INNOVATIVE
ACADEMY